

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

“O`zbek adabiyoti” kafedrası

**«AMALIY FOLKLORSHUNOSLIK» FANIDAN
MUSTAQIL ISH TOPSHIRIQLARI**

*Pedagogika institutlarining
filologiya fakultetlari uchun
Uslubiy ko`rsatma*

Navoiy - 2008

Mazkur uslubiy ko`rsatmada o`zbek filologiyasi fakulteti talabalarining «Amaliy folklorshunoslik» fanidan mustaqil ishlarni bajarish uchun zaruriy uslubiy ko`rsatma va topshiriqlar, zarur ADABIYOTLAR va internet manzillarida mavjud saytlar berilgan. Uslubiy ko`rsatma o`zbek filologiyasi fakulteti talabalariga mo`ljallangan.

Uslubiy ko`rsatma O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligining muvofiqlashtiruvchi Ilmiy kengashi tomonidan 2004 - yil 2-fevralda tasdiqlangan namunaviy dasturi asosida hamda OO`MTVning «Talabalar mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to`g`risidagi Nizomi»ga muvofiq tuzildi.

Mas`ul muharrir:	M. Farmonova <i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent.</i>
Tuzuvchilar:	O. Qayumov, Z. Jumayev- <i>filologiya fanlari nomzodlari.</i>
Taqrizchilar:	A. Zayniddinova <i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent.</i> T. Xo`jayev <i>filologiya fanlari nomzodi, dotsent.</i>

Uslubiy ko`rsatma NDPI O`zbek filologiyasi fakulteti Ilmiy uslubiy kengashining 2008-yil 1-sonli yig`ilishida muhokama etilib, nashrga tavsiya qilingan.

Navoiy davlat pedagogika instituti «O`zbek adabiyoti» kafedrasining «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to`g`risida»gi

N I Z O M I

I. Umumiy qoidalar:

1.1 Mazkur Nizom O`zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2001-yil 16- avgustdagi «Oliy ta`limning davlat ta`lim standartlarini tasdiklash to`g`rsida»gi 343-son qaroriga hamda OUMTVning 2005- yil 21- fevraldagi 34-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan Oliy ta`lim muassasasida «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to`g`risida»gi Namunaviy Nizomga muvofiq kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilishda talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibini belgilaydi.

1.2. Talabaning mustaqil ishi o`quv rejasida adabiyotshunoslik fanlarini o`zlashtirish uchun belgilangan o`quv ishlarining ajralmas qismi bo`lib, u uslubiy va axborot resurslari jihatdan ta`minlanadi hamda bajarilishni reyting tizimi talablari asosida nazorat qilinadi.

1.3. Institutda talabaning haftalik mustaqil ishlarini umumiy hajmi bakalavriatning kunduzgi bo`limida 22 soatni, magistraturada esa 18 soatni tashkil etadi.

1.4. O`quv semestri yakunida talabani mustaqil ishi bo`yicha to`plagan reyting ballari har bir fan bo`yicha auditoriyadagi o`quv ishlariga berilgan reyting ballari bilan birgalikda guruh reyting qaydnomasida, talabaning reyting daftarchasida va o`qitish yakunida bitiruvchiga taqdim etiladigan diplom ilovasida qayd etiladi.

II. Talaba mustaqil ishining maqsad va vazifalari:

2.1. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o`qituvchi rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o`quv ishlarini mustaqil ravishda bajarishi uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

2.2 Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- o`zbek va jahon adabiyotshunoslik fanida qo`lga kiritilayotgan yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o`zlashtirish ko`nikmalariga ega bo`lish;
- adabiyotshunoslik fanlari nazariyasiga doir kerakli ma`lumotlarni izlab topish, adabiy materialni tahlil qilishning qulay usul va vositalarini aniqlash;
- axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- an`anaviy o`quv va ilmiy ADABIYOTLAR, me`yoriy hujjatlar bilan ishlash;
- elektron o`quv ADABIYOTLARI va ma`lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog`ida yoritilib borilayotgan adabiyotshunoslik fanining yangiliklaridan maqsadli foydalanish;
- berilgan topshiriqni racional echimini belgilash;
- adabiyotshunoslik fanlaridan ma`lumotlar bazasini tashkil etish;
- ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- mustaqil ishda o`qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondashish;
- talaba tomonidan ishlab chiqilgan echim, loyiha yoki g`oyani asoslash va mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

III. Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari:

3.1. Talaba mustaqil ishini tashkil etishda adabiyotshunoslik fanlari (kurs)ning xususiyatlarini, shuningdek, har bir talabaning akademik o`zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

-ayrim nazariy mavzularni o`quv ADABIYOTLARi yordamida mustaqil o`zlashtirish;

-berilgan mavzu bo`yicha axborot (referat) tayyorlash;

-seminar va amaliy mashg`ulotlarga tayyorgarlik ko`rish;

-laboratoriya ishlarini bajarishga tayyorgarlik ko`rish;

-seminar mashg`ulotlariga tayyorgarlik ko`rish;

-malakaviy bitiruv ishi va magistrlik desertaciasini tayyorlash;

-nazariy bilimlarni amaliyotda qo`llash;

-amaliyotdagi mavjud muammolarning echimini topish;

-ilmiy maqola, anjumanga ma`ruza tezislarini tayyorlash.

O`qitilayotgan fanning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talaba mustaqil ishini tashkil etishda boshqa shakllardan ham foydalanishi mumkin.

3.2. O`quv fanlari bo`yicha namunaviy va ishchi dasturlarda talaba mustaqil ishining shakli, mazmuni va hajmi ifoda etiladi.

3.3. Talaba mustaqil ishi uchun ajratilgan vaqt byudjetiga mos ravishda har bir fan bo`yicha tegishli kafedralarda mustaqil ishning tashkiliy shakllari, topshiriqlar variantlari ishlab chiqildi va fakultet ilmiy-uslubiy kengashida tasdiqlanadi.

3.4. Mustaqil ishni bajarish uchun fanlar bo`yicha talabalarga zaruriy metodik qo`llanma, ko`rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

3.5. Har bir kafedra huzuridagi uslubiy ishlar bayoni tashkil etiladi.

IV. Talaba mustaqil ishining axborot ta`minoti:

4.1 Talaba uchun muayyon fan bo`yicha mustaqil ishi topshiriqlari tegishli kafedra professori (yoki etakchi dotsenti) tomonidan o`quv mashg`ulotlarini bevosita olib boruvchi o`qituvchi bilan birgalikda tuziladi hamda kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi. Talabalarga berilgan mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo`yicha dastlabki ko`rsatma va tavsiyalar qayd etiladi.

4.2. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida darslik va o`quv qo`llanmalar, metodik qo`llanmalar va ko`rsatmalar, ma`lumotlar to`plami va banki, ilmiy va ommaviy davriy nashrlar Internet tarmog`idagi tegishli ma`lumotlar, berilgan mavzu bo`yicha avval bajarilgan ishlar banki va boshqalar xizmat qiladi.

4.3. Kafedra mudiri va tegishli fakultet dekani taqdimnomasi asosida Oliy ta`lim muassasasi rahbariyati talabalarga mustaqil ishlari bajarish uchun zarur axborot va vositalarini belgilaydi, talabalarga turli kutubxonalar, muzeylar, O`zRFA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi, tarmoq muassasalari va korxonalaridan mustaqil ish uchun zaruriy ma`lumotlar to`plash yuzasidan so`rovnoma xatlarini rasmiylashtirib boradi.

4.4. Institut rahbariyati tomonidan talabalarga mustaqil ishlarni o'z vaqtida bajarish uchun komp'yuter texnikasi va internet tarmog'idan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratilib beriladi.

V. Talabalar mustaqil ishini nazorat qilish va baholash:

5.1. Har bir fan bo'yicha talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish yuklamasi (ishchi o'quv rejasining 10-ustunida keltirilgan) professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasining tashkiliy-uslubiy bo'limi (1540 soat doirasi)da qayd etiladi.

Talaba kurs ishi (loyihasi)ni hamda malakaviy bitiruv ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlashga ajratilgan soatlar professor-o'qituvchi shaxsiy ish rejasining o'quv ishlari bo'limida qayd etiladi.

5.2. Talaba mustaqil ishiga rahbarlik qilish kafedrada tuziladigan va fakultet dekani tomonidan tasdiqlanadigan konsul'tatsiyalar jadvali asosida amalga oshiriladi.

5.3. Talabaning mustaqil ishi bo'yicha konsul'tatsiya soatlari guruh jurnalida qayd etib boriladi.

5.4. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish o'quv mashg'ulotlarini bevosita olib boruvchi o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

5.5. Talabaning mustaqil ishi, muayyan fan ishchi dasturida ajratilgan soatlarga mos reyting ballari bilan baholanadi va natijasi fan bo'yicha talabaning umumiy reytingiga kiritiladi.

Talabaning reyting ko'rsatkichlari, shu jumladan mustaqil ishi bo'yicha, an'anaviy guruh reyting oynasida va (yoki) fakultet maxsus elektron tarmog'ida yoritilib boriladi.

5.6. Talaba mustaqil ishini nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari tegishli kafedra tomonidan belgilanadi hamda fakultet Ilmiy kengashida tasdiqlanadi. Mustaqil ishlarni baholash mezonlari talabalarga o'quv yili (semestr) boshlanishi oldidan uslubiy materiallar bilan birgalikda tarqatiladi.

5.7. Mustaqil ish bo'yicha belgilangan maksimal reyting ballining 55% dan kam ball to'plagan talaba fan bo'yicha yakuniy nazoratga qo'yilmaydi.

5.8. Fanlar kesimida talabalarining mustaqil ishlari bo'yicha o'zlashtirishlari muntazam ravishda akademik guruhlarda, kafedra yig'ilishlari va fakultet Ilmiy kengashlarida muhokama etib boriladi.

5.9. Talabaning mustaqil ishi kafedra arxivida ro'yxatga olinadi va o'quv yili mobaynida saqlanadi.

Talabaning kurs ishi (loyihasi)ni xamda malakaviy bitiruv ishi yoki magistrlik dissertatsiyasini ro'yxatga olish va saqlash tartibi tegishli me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

5.10. Institutda yuqori darajada baholangan talabarning mustaqil ishlari ma'naviy moddiy jihatdan rag'batlantiriladi.

Mazkur Nizom OUMTVning 2005- 21-fevraldagi 34-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim muassasasining «Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to'g'risida»gi Nizomi asosida ishlab chiqilgan .

“AMALIY FOLKLORSHUNOSLIK” KURSINING PREDMETI

(2 soat)

Uslubiy ko'rsatma

Folklor xalq ma'naviyatining muhim sarchashmasi. Jamiyatning madaniyatsiz, ma'naviyatsiz, axloqiy qadriyatlarisiz yashay olmasligi borasida I.Karimov.

Og'zaki ijod materiallarini to'plash tarixi. eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklarni ajdodlarimiz tomonidan to'planishi- M.Koshg'ariy «Devonu lug'atit-turk». Rabg'o'ziyning «Qisasi Rabg'o'ziy» asarlari va folklor. Xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plash va nashr etish borasidagi dastlabki jiddiy ekspeditsiyalar.

Folklor asarlari milliy qadriyatlar va milliy mafkura hamda an'analarimiz uchun muhim manba ekanligi. Bugungi folklorshunoslik fanining muhim muammolari, ularning yechimida amaliy folklorshunoslikning o'rni.

Ajdodlar badiiy tafakkuri tadrijiy taraqqiyotini aniqlashda folklorning roli. O'zbek folklorshunosligining tarixiy taraqqiyoti. Amaliy folklorshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Amaliy folklorshunoslik kursining tuzilishi.

TOPSHIRIQLAR:

1. O'zbek folklori materiallarini yozib olish tarixi borasidagi ma'lumotlarni qayd eting.
2. XX asr boshlaridagi folklor ekspeditsiyalari haqida ma'lumot yozing.
3. «Amaliy folklorshunoslik»ning maqsad va vazifalarini Internet materiallari asosida yoritib bering.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I. Barkamol avlod orzusi. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, Toshkent, 2000.
- 2.Safarov O., Jo'rayev M., Tursunqulov A. Folklor praktikasi. Buxoro, 1992.
- 3.Jumanazarov U. Xalq og'zaki ijodi asarlarini tanlash, yozib olish va folklor praktikasini o'tkazish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar. Toshkent,1988.
- 4.Folklor praktikasidan metodik tavsiyalar. Tuzuvchilar: UmurovH., Ochilov T., Azimov A., Xoliqulov J. Samarqand, 1981.
- 5.Chistov K.V. Sovremennoe narodnoe tvorchestvo, ego sobiranie i izuchenie. M.,1963.
- 6.Balashov D.M. Kak sobirat` folklor (Rukovodstvo po sboru proizvedeniy ustnogo narodnogo tvorchestva). M.,1971.
7. Kruglov Yu.G. Folklornaya praktika. M.,1986.
- 8.Moroxin V.N. Metodika sobiraniya folkloru. M., 1990.
- 9.Selivanov F.M. Studencheskaya folklornaya praktika. M., 1982.
- 10.Gusev V.E. Metodika poleviux issledovaniy russkogo folkloru // Russkiy folklor. M.; 1964. Viup.9.

O`ZBEK FOLKLORINING JANRLAR TARKIBI

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

O`zbek folklorining janrlar tarkibi. Epik janrlar va ularning diffuziyasi. Og`zaki asarlarni adabiy turlarga ajratish mezonlari. Og`zaki lirik adabiy asarlar. Ularning janr mansubiyati, bir biridan farqli tomonlari.

Og`zaki dramalar. Ularning yozma adabiyotdagi dramatik asarlardan farqi, o`ziga xos xususiyatlari. Og`zaki dramalarning tarixiy asoslari. Boshqa janrlar bilan munosabatlari.

Bolalar folklori va uning janrlar tarkibi. Bolalar qo`shiqlari ularning badiiy qirralari.

O`zbek folklorining maxsus turga oid janrlari. Bu borada folklorshunos olimlarimizning nazariy qarashlari va tasnifi.

TOPSHIRIQLAR:

1. O`zbek folklorining asosiy janrlar tarkibini aniqlang.
2. Rus, qozoq, tukman, tatar va ozarbayjon folklori janrlari bilan qiyoslang.
3. Internetdan folklorning janrlar tarkibi borasidagi materiallarni topib o`qing va o`zlashtiring.
4. To`plangan materiallar asosida reja tuzib seminar yozing.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Alaviya M. O`zbek xalq marosim qo`shiqlari. Toshkent 1974.
2. Sarimsoqov B. O`zbek marosim folklori. Toshkent, 1986.
3. Sarimsoqov B. O`zbek folklorining janrlar sostavi // O`zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, birinchi tom. Toshkent, 1988.
4. Safarov O. O`zbek bolalar poetik folklori. Toshkent, 1985.
5. Jahongirov G`. O`zbek bolalar folklori. Toshkent, 1974.
6. Jo`rayev M. O`zbek xalq nasri janrlarini tasnif qilish mezonlari // O`zbek tili va adabiyoti. 1996, № 5, 28-35-betlar.
7. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. Toshkent, O`qituvchi, 1990.
8. <http://www.yandex.ru> [www. Ruthenia.ru/folklore/](http://www.Ruthenia.ru/folklore/)

QADIMGI DAVR FOLKLORI

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Mif mustaqil folklor janri sifatida. Mifning boshqa folklor janrlaridan farqi. Qadimiy mifologik tasavvurlarning folklor asarlari syujetiga singish hodisasi. Mifologemalar ularning folklor janrlari bilan munosabati. Arxaik miflar, klassik miflar va o`rta asrlarga xos miflar borasida professor B.Sarimsoqovning nazariy qarashlari.

O`zbek miflarining yuzaga kelishi va shakllanish bosqichlari borasida professor M.Jo`raev tasnifi. Mifologik obrazlar talqini. Pari obrazi va uning tarixiy asoslari. Mifologik tasavvurlarni yozib olish zaruriyati va bu materiallarning ma`naviyatimiz rivojida tutgan o`mi.

Topshiriqlar:

1. Qadimiy mifologik tasavvurlar haqida o`qing.
2. Eng qadimgi miflarni aniqlang va o`zbek folkloridagi izlarini ko`rsatib bering.
3. Mifologik obrazlar va ularning poetik talqini borasidagi ilmiy mulohazalarni aniqlang.
4. O`zbek folkloridagi mifologik obrazlar borasida rus va o`zbek olimlari fikrlarini chog`ishtiring.
5. O`z mustaqil mulohazalaringizni seminar tarzida himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov I. O`zbekiston buyuk kelajaksari. Toshkent, O`zbekiston,1998. 62-bet.
- 2.Potanin G.N. Vostochniue motivu v srednevekovom evropeyskom epose.M.,1883.
- 3.Karamatov H. Qur`on va o`zbek adabiyoti. Toshkent, 1993. 14-bet.
- 4.Mifologiya drevnogo mira. M.,1977.S.36.
- 5.Sarimsoqov B. epik janrlar diffuziyasi//O`zbek folklorining epik janrlari. Toshkent, 1981, 103-bet.
- 6.Jo`raev M., Shomusarov Sh. O`zbek mifologiyasi va arab folklori. Toshkent, Fan, 2001. 20-129-betlar.
- 7.Jo`raev M. O`zbek xalq samoviy afsonalari. Toshkent, Fan, 1995.
8. Qayumov O.Pari haqidagi xalq qarashlari //O`zbek tili va adabiyoti. 1996,Nº1,29-bet; O`sha muallif. Pari obrazining ginezisi//O`zbek tili va adabiyoti. 1998 Nº 4. 34-bet.
9. <http://www.yandex.ru> www. Ruthenia.ru./folklore/

AFSONA, RIVOYAT VA NAQLLAR

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Afsonaning janr tabiati, rivoyatdan va naqllardan farqli tomonlari. Afsonalarning tematik tasnifiga doir folklorshunoslik ilmidagi yangi nazariy qarashlar. Afsonalarning obrazlar tizimi.

Rivoyatlarning o`ziga xos xususiyatlari. O`zbek xalq rivoyatlarining tematik tasnifi. Tarixiy va toponimik rivoyatlarning o`ziga xos jihatlari. Toponimik rivoyatlar tasnifi. Toponimik va tarixiy rivoyatlarning obrazlar tizimi.

O`zbek xalq naqllarining boshqa epik janrlardan farqi. Naqlarning shakl va mazmuniga ko`ra tasnifi. Sinkritik naqlar va sof naqlar, ularning farqli tomonlari.

Topshiriqlar:

1. Afsona va rivoyat janrlarining o`ziga xosligini aniqlang.
2. Naql mustaqil janr ekanligining ilmiy manbalardan aniqlang.
3. Har bir janrga doir Yangi namuna topib yozib keling.
4. Afsona, rivoyat va naqlarning folklor janri sifatida rus va MDH mamlakatlari olimlarining mulohazarini internetdan topib o`qing va o`z xulosangizni chiqaring.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Imomov K. O`zbek xalq og`zaki prozasi. Toshkent, 1981.
- 2.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. Toshkent, O`qituvchi, 1990.
- 3.Sattorov U. O`zbek xalq etnotoponimik afsona va rivoyatlari // Adabiyot gulshani.1-kitob. Toshkent, Mehnat, 1999. 23-26-betlar.
- 4.Jumaev Z. Alisher Navoiy haqidagi tarixiy rivoyatlar// Adabiyot gulshani.1-kitob. Toshkent, Mehnat, 1999. 35-39-betlar.
- 5.Jumaev Z. Tarixiy rivoyatlar tasnifiga doir//O`zbek tili va adabiyoti.№ 2, 2002, 36-39-betlar.
- 6.Jumaevz. Tarixiy rivoyatlarning o`ziga xos xususiyatlari//O`zbek tili va adabiyoti.№2, 1999, 44-46-betlar.
- 7.Rahmonova M. Tarixiy afsonalarda xayoliy-mifologik obrazlar//FOLKLORshunoslik. 1-kitob. Navoiy 2003.
- 8.Sattorov U. Toponimik afsonalar tasnifi xususida ayrim mulohazalar//O`zbek tili va adabiyoti.№3, 1999, 50-53-betlar.
9. <http://www.yandex.ru> www. Ruthenia.ru./folklore/
10. <http://www.yandex.ru> «FOLKLOR postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.

DOSTONLAR

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Turkiy epos va unda doston janrining tutgan o`rni. Xalq dostonlarining janr tabiati. Dostonlar tasnifi. Doston ijrochilari. Dostonchilik maktablari. Dostonlarda variantlilik, turkumlik masalalari.

Qahramonlik dostonlari, ishqiy-romanik dostonlar, romanik dostonlar, kitobiy dostonlar.

Zamonaviy dostonchilik. Zamondosh doston ijrochilari. «Alpomish» dostoni va uning badiiyati, versiyalari, variantlari, asosiy obrazlar tizimi.

Topshiriqlar:

1. Keltirilgan ADABIYOTLARDan doston janri haqida batafsil ma`lumot oling.
2. FOLKLOR va unda doston janrining tutgan o`rni borasida o`zbek va MDH olimlarining ilmiy qarashlarini qiyoslang.

3. Yuqoridagi ko`rsatma, o`rgangan ilmiy manbalarda qayd etilgan fikrlar asosida yangi mulohazalaringizni seminar tarzida yozib himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayev H. Xalq dostonlari va ularning variantlari. Toshkent, 1984.
2. Ashurov T. O`zbek xalq dostonlarida satira va yumor. Toshkent, 1974.
3. Jirmunskiy V. M., Zarifov H. Uzbekskiy narodniy geroicheskiy epos. M., 1974.
4. Mirzayev T. «Alpomish» dostonining o`zbek variantlari. Toshkent, 1968.
5. Mirzayev T. Baxshilar epik repertuarining asosiy xususiyatlari. Toshkent, 1979.
6. Mirzayeva M. O`zbek xalq dostonlarida turkumlik. Toshkent, 1985.
7. Obidova M. «Rustam» turkumidagi dostonlar. Toshkent, 1982.
8. O`zbek folklorining epik janrlari. Toshkent, 1981.
9. Sarimsoqov B. O`zbek adabiyotida saj`. Toshkent, 1978.
10. Saidov M. O`zbek xalq dostonlarida badiiy mahorat. Toshkent 1969.
11. <http://www.yandex.ru> «FOLKLOR postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.

Ertaklar

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Ertak epik folklorning mustaqil janri. ertak janridagi asarlarning o`ziga xosligi, boshqa janrlardan farqlanishi.

Ertaklar tasnifi. Tasnif prinsiplari. ertaklarning boshqa janrlar bilan munosabati. Bu janrdagi asarlarda mazmun va shakl masalasi.

Ertaklarda obrazlar talqini. G`oyaviy mazmun va konflikt, hayotiy voqeilik va xayoliy uydirma. Syujet va kompoziciya.

TOPSHIRIQLAR:

1. Yuqoridagi uslubiy ko`rsatmalar asosida berilgan ADABIYOTLARni o`qing va kospektlashtiring.
2. Ertaklarning kompoziciyasi, syujetidagi o`ziga xosliklarni aniqlang.
3. Ertaklarda obrazlar talqini borasida ustoz folklorshunoslarning asarlarini o`qing va tahlil metodlarini o`zlashtiring.
4. O`zingiz mustaqil bir ertakni poetik tahlil qiling.
5. O`rganganlaringizni seminar tariqasida daftaringizga yozing va himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Anikin V. P. Russkaya narodnaya skazka. M., 1977.
2. Afzalov M. O`zbek xalq ertaklari haqida. Toshkent, 1964.
3. Jalolov G`. O`zbek xalq ertaklari poetikasi. Toshkent, 1976.
4. Jalolov G`. O`zbek folklorida janrlararo munosabatlar. Toshkent, 1979.
5. Imomov K. O`zbek xalq satirik ertaklari. Toshkent, 1974.
6. Imomov K. O`zbek xalq prozasi. Toshkent, 1981.
7. <http://www.yandex.ru> «Folklor postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.

MAQOL VA TOPISHMOQLAR

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Maqol janrining o`ziga xos belgilari. Bu janrdagi asarlarning mavzu ko`lami. Uning matal, topishmoq janrlaridan farqli jihatlari. Maqollarning o`z va ko`chma ma`noda qo`llanishi. Maqollar tasnifi. Maqollar poetikasida badiiy ko`chimlarning ishlatilishi.

Topishmoqlarning janr tabiati. Topishmoq atamasining e`timologiyasi. Mazkur janrning maydonga kelishi bilan bog`liq badiiy tafakkur taraqqiyotining tahlili. Topishmoqlar kompozitsiyasi. Topishmoqlar poetikasi. Topishmoq janridagi asarlarda badiiy ko`chimning muhim o`rin tutishi.

TOPSHIRIQLAR:

1. Yuqoridagi uslubiy ko`rsatma asosida berilgan ADABIYOTLARni o`qing va konspekt qiling.
2. Maqol va topishmoq janrlarining o`ziga xosliklarini ustoz folklorshunoslar nazariy qarashlari asosida aniqlang.
3. Har ikki janr yuzasidan o`zbek va jahon folklorshunoslari nazariy qarashlarini qiyoslang.
4. O`rgangan materiallaringiz asosida «maqol va topishmoqlarning janr tabiati va badiiyati» mavzusida o`z mustaqil qarashlaringizni ifodalagan referat yozing hamda uni himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Arestotel. Poetika. Toshkent, 1980.
2. Anikin V.P. Russkie narodniue posloviu, pogovorki, zagadki i detskiy folklor. M., 1957.
3. Sarimsoqov B. Maqollar//O`zbek folklori ocherklari. Toshkent, t.1, 1988. 95-98-betlar.
4. Taylor E.B. Pervobiutnaya kultura. M., 1989.
5. Husainova Z. O`zbek topishmoqlari. Toshkent, 1966.
6. Husainova Z. Topishmoqlar//O`zbek folklori ocherklari. Uch tomlik, birinchi tom. Toshkent, 1988, 100-101-bet.
7. <http://www.yandex.ru> «Folklor postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.

OLQISH VA QARG`ISHLAR

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

So`z ilohasi haqida ma`lumot. Qadimgi ajdodlarimiz mifologik tasavvurlari va so`zning sehrli qudrati. Olqishlar va ularning janr xususiyati. Olqishlarning ijro o`rni. Olqishlar tasnifiga doir mulohazalar. Kundalik maishiy olqishlar, uchrashuv olqishlari, dasturxon olqishlari, biror ish yoki tadbir boshlanishida aytiladigan olqishlar.

So`z va uning ilohiy qudratidan bir biriga zid bo`lgan janrlarning maydonga kelishi. Qarg`ish atamasining lisoniy tahlili. Qarg`ishlarning tarixan guruhlariga bo`lib tasniflanishi. Qarg`ishlarning o`tmish madaniy merosi sifatidagi ahamiyati.

TOPSHIRIQLAR:

1. Internet materiallaridan oliqishlar va qarg`ishlar tadqiqiga doir ilmiy maqolalarni o`qing va konspektlashtiring.
2. O`rganilayotgan janrlar borasida o`zbek va chet el olimlarining nazariy qarashlarini qiyoslang.
3. Olqish va qarg`ishlardan o`zingiz mustaqil namunalar yozib oling.
4. O`rgangan ADABIYOTLARingizda qayd etilgan nazariy qarashlarni o`zingiz tomoningizdan yozib olingan materiallar tahlili asosida Yangi xulosalaringizni bayon qiling.
5. Mavzu yuzasidan bajargan topshiriqlaringiz va yozgan ilmiy xulosalaringizni kafedrada himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Saimsoqov B. Olqishlar va qarg`ishlar//O`zbek folklori ocherklari. Toshkent, t.1, 1988,128-152-betlar.
- 2.Katash S.S. Alkish sos (blagopojelaniya)- drevniy janr altayskogo folklori//Ulagashevskie chteniya.Vip.1. Gorno-Altaysk, 1976, s.63-77.
- 3.Qo`chqorov N. Xalq olqish va qarg`ishlarining tarixiylik principi // O`zbek tili va adabiyoti.1991,№ 6, 40-44-betlar.
- 4.Eshboeva F. Qarg`ish va uning doston tarkibidagi badiiy talqini // O`zbek tili va adabiyoti.1998, № 5, 48-50-betlar.
5. <http://www.yandex.ru> «Folklor postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.

MAROSIM AYTIMLARI

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Marosim folklori haqida ma`lumot. Mavsumiy marosim aytimlari. Bahorgi mavsum bilan bog`liq aytimlar. Shox moylar marosimi. Navro`z bayrami bilan bog`liq marosimlar.Yomg`ir, shamol va boshqa tabiat hodisalari bilan bog`liq marosimlar. Yozgi va kuzgi marosimlar. «Choy momo», «Yo Haydar» qo`shiqlari. Haydar, Ajdar, Yallimomo kul`tlari bilan bog`liq tasavvurlar. Qishki marosimlar.Yas-yusun marosimi.

Oilaviy maishiy marosimlar. To`y marosimlari: beshik, xatna, nikoh to`ylari bilan bog`liq marosimlar va ularda aytiladigan aytimlar.

Motam marosimlari. Yig`i-yo`qlovlar, ularning mavzu ko`lami. Marosim aytimlarining janr tabiati.

So`z magiyasiga asoslangan marosimlar. Xalq afsunlari, ularning janriy belgilari.

TOPSHIRIQLAR:

1. O`zbek marosimlari folklorining tasnifotini aniqlang.
2. Berilgan ADABIYOTLARdan marosimlar folklori va uning o`ziga xos xususiyatlari borasidagi ilmiy mulohazalarni konspektlashtiring.
3. O`zbek va jahon folklorshunoslarining marosimlar folkloriga doir ilmiy qarashlarini qiyosiy tahlil qiling, o`z xulosalaringizni daftaringizga yozing.

4. «Marosimlar folklorining janrlar tarkibi» mavzusida referat yozing va fikrlaringizni himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Alaviya Muzayana. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. Toshkent, 1974.
2. Abdulahatov N. O'zbek xalq yig'ilarining janr xususiyatlariga doir // O'zbek tili va adabiyoti. 1999, № 1, 54-58-betlar.
3. Kravcov N. I., Lazutin S. G. Russkoy ustnoy narodnoy tvorchestvo. M., 1983, s. 32-66.
4. Sarimsoqov B. O'zbek marosim folklori. Toshkent, 1986.
5. Jo'rayev M. O'zbeklarning shamol bilan bog'liq mifologik tasavvurlari. Ajdar kul'ti // O'zbek tili va adabiyoti. № 2, 1998. 18-23-betlar.
6. Jo'rayev M. O'zbeklarning shamol bilan bog'liq mifologik tasavvurlari. Haydar kul'ti. // O'zbek tili va adabiyoti. № 3, 1998. 21-24-betlar.
7. Jo'rayev M. O'zbeklarning shamol bilan bog'liq mifologik tasavvurlari. Yallimomo kul'ti // O'zbek tili va adabiyoti. № 4, 1998. 20-24-betlar.
8. <http://www.yandex.ru> «Folklor postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.
9. Qayumov O. Shomon afsonalari // O'zbek tili va adabiyoti. 2004 № 6.
10. Qayumov O. Shomon chorlovlari // Ilm sarchashmasi. 2005. № 2.

QO'SHIQLAR

(2 soat)

Uslubiy ko'rsatma

O'zbek folklorida qo'shiqning tutgan o'rni. Qo'shiq atamasining lisoniy tahlili. Qadimiy qo'shiqlarning Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit turk» asarida keltirilishi. Qo'shiqlarning vazn va to'roqlari. Qo'shiq janridagi og'zaki asarlarning janr tabiati. Qo'shiqlar tasnifi.

Mehnat qo'shiqlari: Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, tijorat qo'shiqlari.

Lirik qo'shiqlar ularning janrlari va o'ziga xosligi. Mavzu ko'lam. Obrazlar silsilasi. G'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Tarixiy qo'shiqlar, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Mavzu ko'lam, g'oyaviy-badiiy jihatlari. Xalq qo'shiqlari ijrochilari.

Termalar o'zbek folklorining mustaqil janri. Uning yaratilishida baxshilarning roli. Terma janridagi asarlarning o'ziga xosligi, boshqa janrlardan farqli tomonlari. Termalar tasnifi.

TOPSHIRIQLAR:

1. Internet materiallari asosida qo'shiqlar bilan bog'liq ilmiy maqolalarni topib konspektlashtiring.
2. Xalq qo'shiqlarining janr tabiati borasida bildirilgan folklorshunoslarning ilmiy nazariy mulohazalarini qiyosiy asnoda o'rganing.
3. Xalq qo'shiqlari va ularning tasnifi mavzusida o'zingizning shaxsiy nazariy mulohazalaringizni bayon qiling.
4. O'z qarashlaringizni seminar tarzida himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B, Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. Toshkent, O`qituvchi 1990.
- 2.Alaviya M. O`zbek xalq qo`shiqlari. Toshkent, 1959.
- 3.Mirzayev T. Uzbekskaya narodnaya poeziya. Izd.SP, L.,1990.
- 4.Musaqulov A. O`zbek xalq qo`shiqlarining tarixiy asoslari. Toshkent,1994.
- 5.Musaqulov A. Qo`shiqlarda xalq qalbi// Ostonasi tillodan. Toshkent, Fan, 1992.
6. Musaqlulov A. Lirik va qo`shiq atamallari genezisi//O`zbek tili va adabiyoti. 1993,№ 3,48-53-betlar.
- 7.Ismonova O. «Kelin salom» qo`shiqlarining janr xususiyatlari//O`zbek tili va adabiyoti 1999.,№ 5,51-53-betlar.
8. Nosirov R. Xalq qo`shiqlarining zanjirli kompozitsiyasi// O`zbek tili va adabiyoti 2002, № 3, 33-35-betlar.
9. <http://www.yandex.ru> «Folklor postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.

ASKIYA VA LATIFA

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Askiya o`zbek folklorining mustaqil janri sifatida. Askiya janridagi asarlarning ijro o`rni, ijrochilari. Askiyaning badiiy va g`oyaviy xususiyatlari. Askiya janridagi asarlarning kompozitsiyasi. Askiyada satira va yumorning o`rni. Askiya turlari.Payrov, safsata, o`xshatdim,va diolog shaklidagi askiyalar.

Latifalarning janr tabiati. Latifa janrining tarixiy asoslari. Latifalarning syujet tuzilishi va kompozicion qurilishi. O`zbek xalq latifalarining obrazlar tizimi. Latifa janridagi asarlarda satira va yumorning tutgan o`rni.

Topshiriqlar:

1. Berilgan ADABIYOTLARdan va Internet materiallari asosida latifa va askiya janrlarining o`ziga xosliklari haqidagi ilmiy ma`lumotlarni o`qing va o`rganing.
2. O`zbek va jahon folklorshunosligida mavjud ilmiy qarashlarning qiyosiy tahlil qiling.
3. Mavzu yuzasidan o`zingiz mustaqil nazariy xulosalar chiqaring.
4. Chiqargan nazariy xulosalaringizni referat tarzida rasmiylashtiring va himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Razzoqov H. O`zbek xalq og`zaki ijodida satira va yumor. Toshkent, Fan, 1965.
- 2.Suvonqulov B. «Latifa» termini haqida.//O`zbek tili va adabiyoti. 2002, №1, 43-44-betlar.
- 3.Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B, Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. Toshkent, O`qituvchi 1990.
4. Yo`ldosheva F. O`zbek materiallarida Nasriddin afandi obrazi. Toshkent, Fan, 1979.
5. <http://www.yandex.ru> «Folklor postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.

LOF VA OG`ZAKI DRAMALAR

(2 soat)

Lof mustaqil folklor janri sifatida. Lofning o`zbek xalq nasrida tutgan o`rni. Askiya va latifalarga munosabati. Lof ijrochilari, lofbozlar haqida.

Lofda satira va yumorning o`rni. Bu janrdagi asarlarda asosiy badiiy tasvir vositalari. Lof badiiyati, g`oya va mavzu ko`lami.

Lof kompozitsiyasi, syujeti. Uning folklorning boshqa janrlaridan ajralib turishi.

Og`zaki dramalar-xalq ijodining mustaqil turi. Og`zaki drama va folklor teatrlari. Og`zaki dramaning g`oyaviy -tematik yo`nalishi. Masxaraboz va qiziqchilar teatri. Og`zaki drama ijrochilari haqida.

Topshiriqlar:

1. Internet va tavsiya etilgan manbalardan lof, og`zaki dramalarga doir ilmiy maqolalarni o`qing, konspektlashtiring.
2. O`zbek va jahon folklorschunosligining yangi yutuqlari, lof va og`zaki drama janrlari borasidagi ilmiy xulosalarini qiyoslang.
3. O`rgangan materiallaringizga tayangan holda o`zingiz lof va og`zaki dramalardan namunalar yozib oling.
4. Yozib olgan materiallaringizni o`qigan ilmiy asarlaringiz asosida mustaqil tahlil qiling.
5. Tahlil va ilmiy xulosalaringizni referat tarzida himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi. Toshkent, O`qituvchi 1990.
2. Sarimsoqov B. Lof//O`zbek folklori ocherklari. II tom, Toshkent, Fan, 1989.
3. Razzoqov H. O`zbek xalq og`zaki ijodida satira va yumor. Toshkent, Fan, 1965.
4. Qodirov M. O`zbek xalq og`zaki dramasi. Toshkent, 1963.
5. Qodirov M. Masxaraboz va qiziqchilar san`ati. Toshkent, Fan, 1971.
6. Qodirov M. Xalq qo`g`irchoq teatri..Toshkent, 1972.
7. Sarimsoqov B. Marosim va folklor teatri //O`zbek tili va adabiyoti.1991,№ 2, 33-39-betlar.
8. <http://www.yandex.ru> «Folklor postfolklor struktura tipologiya semiotika» sayti.

FOLKLOR AMALIYOTIGA TAYYORLANISH

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Folklor amaliyotining mazmun va mohiyati. Folklor amaliyotining Xalq ta`limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan o`quv rejasiga muvofiq ravishda tashkil etish. Dala amaliyotida amaliyotchi talabalarning moddiy-texnika bilan ta`minlanishi. Amaliyotchilarning o`zlari bilan yortish fonarlari, fotoapparat, audio va vidio kasseta olish zarurati.

Folklor amaliyotining maqsad va vazifalarini aniqlab olish. Amaliyot o`tadigan joyni belgilash. Talabalar guruhi yoki kursini amaliyotga nazariy va amaliy jihatdan

tayyorlash. Amaliyot oldi anjumani o`tkazish. Anjumada amaliyotchi talabalarning vazifalarini aniq belgilab berish. espediciyaning kichik guruhlarini va ularning rahbarlarini tayinlash.

Topshiriqlar:

1. Folklor amaliyotiga tayyorlanish borasida rus olimlari tavsiyalarini konspektlashtiring.
2. Amaliyotchi oldida turgan vazifalarni aniqlang.
3. Moroxin , Kruglov, Jo`rayev, Safarovlarning uslubiy tavsiyalaridan kelib chiqib o`z xulosalaringizni yozing.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Kruglov Yu.G. Folklor naya praktika. M.,1986.
- 2.Moroxin V.N. Metodika sobiraniya folklor. M. 1990.
- 3.Folklor praktikasidan metodik tavsiyalar. Samarqand, 1981.
- 4.Jumanazarov U. Xalq og`zaki ijodi asarlarini tanlash, yozib olish va folklor praktikasini o`tkazish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar. Toshkent, 1988.
- 5.Safarov O., Jo`rayev M., Tursunqulov A. Folklor praktikasi. Buxoro,1992.
- 6.Zarifov H. Lug`at ham termin to`plovchilarga qo`llanma. Toshkent,1934.
- 7.Murodov M. Ijod durdonalarini izlab. Toshkent 1967.
- 8.Egamov X. Folklor va etnografiya. Madaniyat instituti studentlari uchun o`quv programmasi va metodik tavsiyalar. Toshkent,1986.
- 9.Selivanov F.M. . Studencheskaya folklor naya praktika. M., 1982.
- 10.Gusev V.E. Metodika poleviux issledovaniy russkogo folklor // Russkiy folklor. M.; 1964. Viup.9.
- 11.Chistov K.V. Sovremennoe narodnoe tvorchestvo, ego sobiranie i izuchenie. M.,1963.
- 12.Balashov D.M. Kak sobirat folklor (Rukovodstvo po sboru proizvedeniy ustnogo narodnogo tvorchestva). M.,1971

FOLKLOR AMALIYOTINI O`TKAZISH

(2 soat)

Folklor amaliyotiini tashkil etish talablari. Amaliyot ob`ktini aniqlash va amaliyot bazasiga amaliyotchilarni joylashtirish. Amaliyotchilarning amaliyot o`tashlari va yashashlari uchun sharoit yaratish.

Ekspediciya rahbarining vazifasi. Amaliyotchilarning burchi va vazifasi. Amaliyotchining kundalik daftari yuritishi tartibi. Yo`qolib borayotgan janrlarni yozib olish yo`llari. Amaliyotchining suhbat odobi va etikasi.

TOPSHIRIQLAR:

1. Internet materiallari va berilgan ADABIYOTLAR asosida amaliyotni tashkil etishga qo`yilgan talablarni aniqlang.
2. Amaliyotchining amaliyot jarayonida amalga oshirishi lozim bo`lgan vazifalar, uning burch va majburiyatlarini daftaringizga qayd eting.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Kruglov YU.G. Folklornaya praktika. M.,1986.
- 2.Moroxin V.N. Metodika sobiraniya folklora. M. 1990.
- 3.Folklor praktikasidan metodik tavsiyalar. Samarqand, 1981.
- 4.Jumanazarov U. Xalq og`zaki ijodi asarlarini tanlash, yozib olish va folklor praktikasini o`tkazish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar. Toshkent, 1988.
- 5.Safarov O., Jo`rayev M., Tursunqulov A. Folklor praktikasi. Buxoro,1992.
- 6.Zarifov H. Lug`at ham termin to`plovchilarga qo`llanma. Toshkent,1934.
- 7.Murodov M. Ijod durdonalarini izlab. Toshkent 1967.
- 8.Egamov X. Folklor va etnografiya. Madaniyat instituti studentlari uchun o`qv programmasi va metodik tavsiyalar. Toshkent,1986.
- 9.Selivanov F.M. . Studencheskaya folklornaya praktika. M., 1982.
- 10.Gusev V.E. Metodika poleviux issledovaniy russkogo folklora // Russkiy folklor. M.; 1964. Viup.9.
- 11.Chistov K.V. Sovremennoe narodnoe tvorchestvo, ego sobiranie i izuchenie. M.,1963.
- 12.Balashov D.M. Kak sobirat folklor (Rukovodstvo po sboru proizvedeniy ustnogo narodnogo tvorchestva). M.,1971.

FOLKLOR ASARLARINI TO`PLASH METODLARI

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Xalq og`zaki ijodi materiallarini yozib olishning muhim qirralari. Folklor asarlarini to`plash, yozib olishda statsionar metoddan foydalanish. Statsionar metodning o`ziga xos jihatlari va prinsiplari. Folklor asarlarini yozib olishda statsionar metodning tutgan o`rni. Statsionar metodning mohiyati.

Folklor amaliyotida eng ko`p qo`llanuvchi ekspedicion-qidiruv metodidan foydalanish yo`llari. Ekspeditsion- qidiruv metodining mohiyati, mezonlari va o`ziga xos jihatlari.

TOPSHIRIQLAR:

1. Folklor asarlarini to`plash metodlari yuzasidan rus olimlari va o`zbek folklorshunoslarining fikrlarini qiyoslang.
2. Eng maqbul metodlarni daftaringizga qayd eting va ularning samaradorligini isbotlang.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Safarov O., Jo`rayev M., Tursunqulov A. Folklor praktikasi. Buxoro, 1992.
- 2.Jumanazarov U. Xalq og`zaki ijodi asarlarini tanlash, yozib olish va folklor praktikasini o`tkazish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar. Toshkent,1988.
- 3.Folklor praktikasidan metodik tavsiyalar. Tuzuvchilar: Umurov H., Ochilov T., Azimov A., Xoliqulov J. Samarqand, 1981.
- 4.Chistov K.V. Sovremennoe narodnoe tvorchestvo, ego sobiranie i izuchenie. M., 1963.
- 5.Balashov D.M. Kak sobirat folklor (Rukovodstvo po sboru proizvedeniy ustnogo narodnogo tvorchestva). M.,1971.

6. Kruglov YU.G. Folklornaya praktika. M.,1986.
- 7.Moroxin V.N. Metodika sobiraniya folklor. M., 1990.
- 8.Selivanov F.M. Studencheskaya folklornaya praktika. M., 1982.
- 9.Gusev V.E. Metodika poleviux issledovaniy russkogo folklor. M.; 1964. Viup.9.

FOLKLOR ASARLARINI YOZIB OLISH METODLARI

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Folklor asarlarini yozib olishda jahon folklorshunosligi tajribalari. Xalq og`zaki poetik ijodi asarlarini yozib olishning eng ilg`or usullari.

Fonografik usulda yozib olishning prinsiplari. Fonografik usulning mohiyati, bu usuldan foydalanishning o`ziga xos jihatlari.

Vidiografik usuldan foydalanish. Bunda amaliyotchi oldida turgan vazifalar. Vidiografik usulning qulayliklari. Zaruriy texnika vositalari. Ulardan foydalanish yo`llari.

Qo`lda yozib olish metodi hakida ma`lumot. Qo`lda yozib olishda g`arb folklorshunoslari metodi. Qisqartirib yozib olish texnikasi va sirlari.

TOPSHIRIQLAR:

1. Folklor asarlarini yozib olish metodlari yuzasidan rus olimlari va o`zbek folklorshunoslarining fikrlarini qiyoslang.
2. Eng maqbul metodlarni daftaringizga qayd eting va ularning samaradorligini isbotlang.
3. O`z fikr va mulohazalaringizni seminarida himoya qiling.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Kruglov YU.G. Folklornaya praktika. M.,1986.
- 2.MoroxinV.N. Metodika sobiraniya folklor. M. 1990.
- 3.Folklor praktikasidan metodik tavsiyalar. Samarqand, 1981.
- 4.Jumanazarov U. Xalq og`zaki ijodi asarlarini tanlash, yozib olish va folklor praktikasini o`tkazish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar. Toshkent, 1988.
- 5.Safarov O., Jo`rayev M., Tursunqulov A. Folklor praktikasi. Buxoro,1992.
- 6.Zarifov H. Lug`at ham termin to`plovchilarga qo`llanma. Toshkent,1934.
- 7.Murodov M. Ijod durdonalarini izlab. Toshkent 1967.
- 8.Egamov X. Folklor va etnografiya. Madaniyat instituti studentlari uchun o`qv programmasi va metodik tavsiyalar. Toshkent,1986.
- 9.Selivanov F.M. Studencheskaya folklornaya praktika. M., 1982.
- 10.Gusev V.E. Metodika poleviux issledovaniy russkogo folklor. M.; 1964. Viup.9.
- 11.Chistov K.V. Sovremennoe narodnoe tvorchestvo, ego sobiranie i izuchenie. M.,1963.

12.Balashov D.M. Kak sobirat folklor (Rukovodstvo po sboru proizvedeniy ustnogo narodnogo tvorchestva). M.,1971

FOLKLOR ARXIVI

(2 soat)

Uslubiy ko`rsatma

Folklor arxivi ajdodlar ma`naviy merosini keyingi avlodlarga etkazish vositasi sifatida. Folklor arxivining mohiyati. Folklor arxivida saqlanishi lozim bo`lgan hujjatlar. Saqlash muddati. Arxiv jihozlari.

Arxivda saqlanayotgan hujjatlar, folklor asarlarining qayd etish daftari. Inventarlavr daftarini tutish, yuritish qoidalari.

Arxivda saqlanayotgan materiallar kataloglari va kartochkalarini tashkil etish. Katalog va kartochkalarning mazmuni. Arxiv mudiri va uning vazifalari.

TOPSHIRIQLAR:

- 1.Folklor arxivining mohiyatini aniqlang.
2. Birinchi topshiriqni bajarish uchun Internet sahifalaridan folklor arxivlariga kiring va Inventarlar daftari va uni yuritish yo`llarini o`zlashtirib oling.
3. Katalog va kartochkalarning mohiyatini ochib bering.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Safarov O., Jo`rayev M., Tursunqulov A. Folklor praktikasi. Buxoro, 1992.
- 2.Jumanazarov U. Xalq og`zaki ijodi asarlarini tanlash, yozib olish va folklor praktikasini o`tkazish yuzasidan ilmiy-metodik tavsiyalar. Toshkent, 1988.
- 3.Folklor praktikasidan metodik tavsiyalar. Tuzuvchilar: UmurovH., Ochilov T., Azimov A., Xoliqulov J. Samarqand, 1981.
- 4.Chistov K.V. Sovremennoe narodnoe tvorchestvo, ego sobiranie i izuchenie. M.,1963.
5. Balashov D.M. Kak sobirat folklor (Rukovodstvo po sboru proizvedeniy ustnogo narodnogo tvorchestva). M.,1971.
6. Kruglov Yu.G. Folklornaya praktika. M.,1986.
- 7.Moroxin V.N. Metodika sobiraniya folklor. M., 1990.
- 8.Selivanov F.M. Studencheskaya folklornaya praktika. M., 1982.
- 9.Gusev V.E. Metodika poleviux issledovaniy russkogo folklor // Russkiy folklor. M.; 1964. Vip.9.

